

LOYIHA MENEJERLARINI TAYYORLASHDA XALQARO STANDARTLARNI (IPMA/PMBOK) INTEGRATSIYA QILISH MASALALARI

Maxkamova Nozima Sayfulla qizi

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi,

Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti,

Loyiha boshqaruvi yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22705073>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 10-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 11-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Mazkur tezisdagi bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida loyihaviy boshqaruv tizimiga bo'lgan talab jadal ortib borilishi haqida. Ushbu tezisdagi mahalliy oliy ta'lim muassasalarida loyiha menejerlarini tayyorlash tizimini zamonaviylashtirish va uning sifatini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - bo'lajak mutaxassislarni o'qitish jarayoniga dunyo miqyosida tan olingan IPMA va PMBOK kabi xalqaro standartlarni muvaffaqiyatli integratsiya qilish yo'llarini tahlil qilishdan iborat. Ishda ushbu standartlarning o'ziga xos jihatlari o'rganilib, ularni milliy ta'lim dasturlariga moslashtirish bo'yicha aniq uslubiy takliflar ilgari surilgan. Xalqaro andozalarni joriy etish orqali talabalarda amaliy professional kompetensiyalarni shakllantirish hamda bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:

Loyiha boshqaruvi, IPMA, PMBOK, xalqaro standartlar, integratsiya, kompetensiya, ta'lim samaradorligi, loyiha menejeri.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va yirik strategik dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yuqori malakali loyiha menejerlariga bo'lgan talab har qachongidan ham yuqoridir. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham boshqaruv kadrlarining zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida oliy ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, ta'lim dasturlarini xalqaro andozalar asosida yangilash masalalariga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, Prezidentning oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga doir qarorlari ijrosini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarida (OTM) shunchaki nazariy bilim berishdan amaliy boshqaruv ko'nikmalarini (soft va hard skills) rivojlantirishga o'tishni talab etadi.

Biroq, milliy ta'lim tizimida loyiha boshqaruvini o'qitishda hamon an'anaviy, ko'proq nazariyaga asoslangan yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Bu esa bitiruvchilarning real biznes loyihalar va xalqaro investitsiya dasturlarida erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi. Mazkur muammoni hal etishning eng samarali yo'li - dunyo miqyosida tan olingan va o'z samaradorligini isbotlagan xalqaro loyiha boshqaruvi standartlarini (IPMA va PMBOK) ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdir.

Ushbu standartlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, mutaxassisni har tomonlama yetuk bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Quyidagi jadvalda ushbu ikki standartning asosiy yo'nalishlari va ularni ta'limga joriy etishning afzalliklari aks ettirilgan:

1-jadval.

IPMA va PMBOK xalqaro standartlarining qiyosiy tahlili va ta'limdagi ahamiyati

Standart nomi	Asosiy konseptual asosi (Fokus)	OTM dasturlariga integratsiya yoʻnalishi	oʻquv qilish	Talabada shakllanadigan yakuniy koʻnikma
PMBOK (Project Management Body of Knowledge - PMI, AQSh)	Jarayonlarga asoslangan yondashuv: Loyihani rejalashtirish, ijro etish, monitoring va nazorat qilish bosqichlari (5 ta jarayonlar guruhi, 10 ta bilim sohasi).	Oʻquv rejasidagi "Loyihalarni boshqarish" fanlarining uslubiy asosini shakllantirish, texnik vositalar (MS Project, Jira) bilan ishlashni oʻrgatish.	Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarini yaratish, byudjet va vaqtni aniq hisoblash, xavf-xatarlarni (risklarni) boshqarish.	
IPMA (International Project Management Association - Shveysariya)	Kompetensiyaga asoslangan yondashuv: Menejerning shaxsiy, professional va kontekstual (muhitga moslashuv) xususiyatlari (ICB toʻrtinchi versiyasi).	Talabalarda yetakchilik, jamoa bilan ishlash, muzokaralar olib borish madaniyatini amaliy oʻyinlar (simulyatsiyalar) orqali rivojlantirish.	Stressga chidamlilik, strategik fikrlash, inqirozli vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qilish (shaxsiy yetakchilik).	

Manba: Loyiha boshqaruvi institutlari (PMI va IPMA) rasmiy metodologik qo'llanmalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarni tayyorlashda faqat bitta standart bilan cheklanib qolish kadrlar raqobatbardoshligini pasaytiradi. PMBOK talabaga loyihani qanday qilib texnik va mantiqiy tartibga solishni o'rgatsa, IPMA o'sha loyihani boshqaradigan shaxsning yetakchilik qobiliyatlarini ochib beradi.

Xalqaro standartlarni milliy OTMlar dasturiga integratsiya qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Birinchi navbatda, iqtisodiyot va menejment yo'nalishidagi fan dasturlarini Sillabuslarni PMI va IPMA sertifikatlash imtihonlari talablariga moslashtirish lozim. Shunda talaba universitetni bitirish arafasida nafaqat diplom, balki xalqaro miqyosda tan olinadigan professional sertifikatni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, o'qitish metodikasiga keys-stadi (case-study) va biznes-simulyatsiyalarni jalb qilish zarur. Bu esa bo'lajak loyiha menejerlarining mehnat bozoridagi qiymatini oshiradi, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlaydi va eng muhimi, dissertatsiya mavzumizda ilgari surilgan loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligini oshirish tizimiga amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar, xususan, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasiga ko'ra, universitetlarda loyiha boshqaruvi fanlari bevosita xalqaro assotsiatsiyalar bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Masalan, Yaponiyaning yetakchi universitetlarida PMBOK standarti asosida o'tilgan fanlarni muvaffaqiyatli topshirgan talabalarga avtomatik ravishda CAPM (Certified Associate in Project Management) sertifikatini topshirish huquqi beriladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y.
2. Project Management Institute. (2021). *A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide)* (7th ed.). Newtown Square, PA: Project Management Institute.
3. International Project Management Association. (2015). *Individual Competence Baseline for Project, Programme & Portfolio Management (IPMA ICB, Version 4.0)*. Zurich: IPMA.

4. Kerzner, H. (2017). *Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling* (12th ed.). John Wiley & Sons.
5. Turner, J. R. (2014). *The Handbook of Project-based Management: Leading Strategic Change in Organizations* (4th ed.). McGraw-Hill Education.
6. Archibald, R. D. (2003). *Managing High-Technology Programs and Projects*. John Wiley & Sons.
7. Aliev, K. A. (2024). O'zbekistonda innovatsion loyihalarni boshqarishda kadrlar salohiyatini oshirish masalalari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, (3), 45-52.
8. Official website of the Project Management Institute (PMI) — www.pmi.org.
9. Official website of the International Project Management Association (IPMA) — www.ipma.world

Abstract:

This thesis is about the rapidly increasing demand for project management systems in the sectors of our country's economy today. This thesis examines the issues of modernizing the system of training project managers in local higher educational institutions and improving its quality. The main goal of the study is to analyze ways to successfully integrate such internationally recognized international standards as IPMA and PMBOK into the process of training future specialists. The work studies the specific aspects of these standards and puts forward specific methodological proposals for adapting them to national educational programs. The possibilities of forming practical professional competencies in students and ensuring the competitiveness of graduates in the labor market through the introduction of international standards are substantiated.

Keywords:

Project management, IPMA, PMBOK, international standards, integration, competence, educational effectiveness, project manager.

Аннотация:

Данная диссертация посвящена стремительно растущему спросу на системы управления проектами в современных секторах экономики нашей страны. В работе рассматриваются вопросы модернизации системы подготовки менеджеров проектов в местных высших учебных заведениях и повышения ее качества. Главная цель исследования – анализ путей успешной интеграции таких международно признанных стандартов, как IPMA и PMBOK, в процесс подготовки будущих специалистов. В работе изучаются специфические аспекты этих стандартов и предлагаются конкретные методические рекомендации по их адаптации к национальным образовательным программам. Обосновываются возможности формирования практических профессиональных компетенций у студентов и обеспечения конкурентоспособности выпускников на рынке труда посредством внедрения международных стандартов.

Ключевые слова:

Управление проектами, IPMA, PMBOK, международные стандарты, интеграция, компетенция, эффективность образования, менеджер проекта.